



CHAKANA SUG'URTANI RIVOJLANTIRISH: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASIDA JORİY ETİSH İSTIQBOLLARI

Yuldashev Akrom

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

ORCID: 0009-0002-3638-9516

akramjonyuldashev79@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada chakana sug'urtani rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajribalar tahlil qilinadi hamda ularni O'zbekiston Respublikasi sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Swiss Re Institute – Global Insurance Outlook 2024 hisobotiga va boshqa nufuzli manbalarga asoslanib, sug'urta sohasidagi global tendensiyalar – raqamlashtirish, integratsiyalashgan (embedded) sug'urta, mikrosug'urta va texnologik innovatsiyalar (insurtech) yoritilgan. Hindiston, Keniya va Qozog'iston tajribalari bilan solishtirma tahlil o'tkazilib, O'zbekistonda mavjud to'siqlar aniqlanadi va transformatsiya yo'nalishlari belgilanadi.

Kalit so'zlar: chakana sug'urta, O'zbekiston, xalqaro tajriba, raqamlashtirish, integratsiyalashgan sug'urta, mikrosug'urta, insurtech, sug'urta bozori.

РАЗВИТИЕ РОЗНИЧНОГО СТРАХОВАНИЯ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Юлдашев Акром

Ташкентский международный университет Кимё

Аннотация. Статья посвящена анализу международных подходов к развитию розничного страхования и возможности их адаптации в Республике Узбекистан. На основе отчёта Swiss Re Institute – Global Insurance Outlook 2024, а также других авторитетных источников, рассматриваются глобальные тенденции в страховой сфере: цифровизация, встроенное страхование, микрострахование и insurtech. Проведён сравнительный анализ показателей развития в Узбекистане, Индии, Кении и Казахстане. Выявлены барьеры и определены направления трансформации узбекского страхового рынка с акцентом на инклюзивность, технологичность и устойчивость.

Ключевые слова: розничное страхование, Узбекистан, международный опыт, цифровизация, встроенное страхование, микрострахование, insurtech, страховой рынок.

DEVELOPMENT OF RETAIL INSURANCE: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND IMPLEMENTATION PROSPECTS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Yuldashev Akrom
Kimyo International University in Tashkent

Abstract. This article examines international approaches to the development of retail insurance and explores the potential for their adaptation in the Republic of Uzbekistan. Drawing on the Swiss Re Institute – Global Insurance Outlook 2024 and other key sources, it outlines global trends such as digitalization, embedded insurance, microinsurance, and insurtech. A comparative analysis of Uzbekistan, India, Kenya, and Kazakhstan highlights structural barriers and identifies strategic directions for transforming the Uzbek insurance market, with a focus on inclusivity, innovation, and sustainability.

Keywords: retail insurance, Uzbekistan, international experience, digitalization, embedded insurance, microinsurance, insurtech, insurance market.

Kirish.

Global moliyaviy sektor transformatsiyasi sharoitida chakana sug'urta xizmatlari davlatlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tobora strategik ahamiyat kasb etmoqda. Swiss Re Institute – Global Insurance Outlook (2024) tahliliy hisobotida qayd etilishicha, yaqin yillarda chakana sug'urta sohasining o'sishi raqamli innovatsiyalar, mijozga yo'naltirilgan yondashuvlarning kuchayishi hamda inklyuziv sug'urta modellarining kengayishi bilan belgilanadi. Bu holat ayniqsa sug'urta xizmatlarining qamrovi past va aholi moliyaviy institutlarga cheklangan ishonch bildiradigan rivojlanayotgan davlatlar uchun dolzarbdir.

O'zbekiston Respublikasi bozor iqtisodiyotini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni raqamlashtirish yo'nalishidagi islohotlarni amalga oshirar ekan, sug'urta sohasi yuzasidan qator tarkibiy muammolarga duch kelmoqda. So'nggi yillardagi islohotlarning ijobiy sur'atiga va sug'urta bozorining liberallahuviga qaramay, sug'urta xizmatlarining umumiy ichki mahsulotga nisbatan qamrov darajasi jahon o'rtacha ko'rsatkichidan ancha pastligicha qolmoqda. Bu esa chakana sug'urta segmentining rivojlanishi uchun salmoqli salohiyat mavjudligidan dalolat beradi. Aholining ijtimoiy himoyasini mustahkamlash va moliyaviy sektorni diversifikatsiya qilishga qaratilgan davlat siyosati esa ilg'or xalqaro tajribalarni joriy etish uchun qulay institutsional muhitni shakllantirmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi — chakana sug'urtani rivojlantirish bo'yicha dolzarb xalqaro yondashuvlarni tahlil qilish va ularni O'zbekiston Respublikasi sharoitida moslashtirish va amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini ko'rib chiqishdan iborat..

Adabiyotlar sharhi.

So'nggi yillarda chakana sug'urtaning global darajadagi rivojlanishi ilmiy va amaliy adabiyotlarda faol tadqiq etilayotgan dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Swiss Re Institute – Global Insurance Outlook] (2024) hisobotida qayd etilishicha, inflyatsion va makroiqtisodiy xatarlarga qaramasdan, chakana sug'urta bozori barqaror o'sishni ko'rsatmoqda. Bunday o'sish, eng avvalo, raqamlashtirish, mahsulotlarni shaxsiylashtirish hamda iste'molning yangi modellarini joriy etish orqali ta'minlanmoqda. Hisobot mualliflari 2024–2026 yillar oralig'ida rivojlanayotgan davlatlarda sug'urta mukofotlarining umumiy yillik o'sish sur'ati 6 foizdan oshishini taxmin qilmoqdalar. Bu jarayonda sun'iy intellekt texnologiyalari, katta hajmdagi ma'lumotlar (big data) va integratsiyalashgan sug'urta (embedded insurance) asosiy omillar sifatida e'tirof etilgan (Swiss Re, 2024).

Embedded insurance — ya'ni sug'urta mahsulotlarini elektron tijorat, bank va telekommunikatsiya xizmatlari ekotizimlariga bevosita kiritish — rivojlangan bozorlar bilan bir qatorda, rivojlanayotgan mamlakatlarda ham tobora faol qo'llanilmoqda. Bunday

yondashuvlar sug'urta xizmatlarining xarajatlarini kamaytirish, ularning aholiga yetkazilish imkoniyatini oshirish va mijozlar tajribasini yaxshilash imkonini beradi. McKinsey (2023) tahliliga ko'ra, bunday modellarning mijoz jalg qilish bo'yicha samaradorligi an'anaviy savdo kanallariga nisbatan 2-3 baravar yuqori.

OECD (2023) hisobotida Marokash, Hindiston, Keniya va Filippin kabi sug'urta xizmatlarining past darajada tarqalgan mamlakatlар misolida, chakana sug'urtaning muvaffaqiyatli rivojlanishi moslashuvchan me'yoriy-huquqiy baza, raqamli kanallarning joriy etilishi va davlat tomonidan mikrosug'urtani faol qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq ekani ta'kidlanadi. Shuningdek, moliyaviy savodxonlikni oshirish va aholining ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlari uchun maxsus sug'urta dasturlarini joriy etish zarurligiga alohida urg'u beriladi.

Jahon Banki (2022) ma'lumotlariga ko'ra, mikrosug'urta va inklyuziv sug'urta modellarining rivojlanayotgan mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya qilishda tutgan o'rni ortib bormoqda. Eng muvaffaqiyatli amaliyotlar aynan davlat organlari, sug'urta kompaniyalarini va fintex platformalari o'rtasidagi hamkorlik mavjud bo'lgan hollarda kuzatilgani qayd etilgan.

Eng dolzARB ilmiy manbalar qatoridan quyidagilarni ham ajratib ko'rsatish lozim:

- EY (2023). NextWave Insurance – Retail – iste'molchilarining xatti-harakatlaridagi o'zgarishlar va modulli, moslashuvchan sug'urta mahsulotlariga o'tish jarayoni tahlili;
- Accenture (2023). The Future of Insurance – sun'iy intellekt, IoT va raqamli platformalarning chakana sug'urta sektoriga ta'siri bo'yicha prognozlar;
- PwC (2024). Insurance 2030 – sug'urta sohasining istiqbollari va global sug'urta ekotizimida rivojlanayotgan bozorlarning o'rni bo'yicha ssenariyli yondashuv.

Yuqoridagi tadqiqotlarni umumlashtirar ekanmiz, zamonaviy ilmiy va amaliy adabiyotlarda quyidagi barqaror tendensiyalar aniqlanadi:

1. Chakana sug'urtada raqamli kanallarning barqaror ustunligi;
2. Shaxsiylashtirilgan va xulq-atvorga moslashtirilgan sug'urta mahsulotlarining ahamiyati ortib borishi;
3. Sug'urtaning boshqa iqtisodiy sohalar (e-commerce, fintex, telekommunikatsiya) bilan integratsiyasi;
4. Inklyuziv sug'urta modellarini davlat darajasida qo'llab-quvvatlash;
5. Insurtech rivojiga mos innovatsion va moslashuvchan tartibga solish tizimining shakllanishi.

O'zbekiston Respublikasi kontekstida ushbu ilmiy ishlanmalar muhim metodologik va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Aholining sug'urta xizmatlari bilan yetarlicha qamrab olinmaganligi, raqamli kanallardan foydalanishning cheklanganligi va moliyaviy institutlarga ishonchning pastligi ushbu strategiyalarning O'zbekiston sharoitiga mos keladigan holatlarda joriy etilishini dolzARB qiladi. Mamlakatda sug'urta sohasida boshlangan islohotlarni inobatga olgan holda, chakana sug'urtaning xalqaro tajribasi asosida xorijiy yechimlarni milliy bozorga moslashtirish yo'nalishlarini asoslab berish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqot chakana sug'urtani rivojlantirishga oid xalqaro va milliy adabiyotlar — analitik hisobotlar, ilmiy maqolalar hamda strategik hujjatlarni sifat jihatdan tahlil qilish asosida qurilgan. Tadqiqotning metodologik asosini esa turli iqtisodiy rivojlanish darajasiga ega mamlakatlarda qo'llanilgan muvaffaqiyatli amaliyotlar, dolzARB tendensiyalar va transformatsion mexanizmlarni aniqlashga yo'naltirilgan solishtirma-analitik yondashuv tashkil etadi.

Tadqiqotning nazariy bazasini shakllantirishda asosiy manba sifatida Swiss Re Institute – Global Insurance Outlook 2024 hisobotidan foydalanildi. Ushbu hujjatda chakana sug'urta bozorining global va mintaqaviy rivojlanishiga oid umumlashtirilgan prognozlar va empirik ma'lumotlar jamlangan. Shuningdek, McKinsey & Company (2023), OECD (2023), World Bank (2022), Ernst & Young (2023) hamda PwC (2024) kabi nufuzli xalqaro tashkilotlarning

hisobotlari ham chuqur o'rganildi. Empirik bazani kengaytirish va verifikatsiya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda respublikada faoliyat yurituvchi sug'urta kompaniyalarining ochiq ma'lumotlari tahlil qilindi.

Xalqaro tajribani O'zbekiston sharoitiga moslashtirish jarayonida tuzilmasiga asoslangan funksional metodologiya qo'llanildi. Bu yondashuv institutsional muhit, raqamlashtirish darajasi, me'yoriy-huquqiy asos va moliyaviy inklyuzivlik ko'rsatkichlarini taqqoslash orqali amalga oshirildi. Shu asosda iqtisodiy va demografik xususiyatlari O'zbekistonga yaqin bo'lgan mamlakatlar (masalan, Hindiston, Qozog'iston, Keniya) tanlab olinib, rivojlanayotgan bozorlar sharoitida chakana sug'urtani rivojlantirish yondashuvlarining benchmark-tahlili o'tkazildi..

Tadqiqot doirasida alohida e'tibor quyidagi yo'nalishlarga qaratildi:

- sug'urta xizmatlarining iqtisodiyotga nisbatan qamrov darajasini (insurance penetration rate) baholash;

- chakana sug'urta mahsulotlariga bo'lgan talabning tuzilmasini aniqlash;
- raqamli kanallar va insurtech'ning bozor rivojlanishidagi roli;
- tartibga solish va rag'batlantirish mexanizmlarining tahlili.

Tadqiqot metodologiyasi deskriptiv tahlil, solishtirma yondashuv ba sug'urta sektorini amaliy modellashtirish elementlarini o'zida mujassam etadi. Bu esa O'zbekiston Respublikasida xalqaro tajribani joriy etish bo'yicha ilgari surilayotgan takliflarning ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, chakana sug'urtaning rivojlanishi sug'urta xizmatlarining iqtisodiyotdagi qamrov darajasi bilan raqamli transformatsiya darajasi, institutsional muhit sifati va moliyaviy bozor yetukligi o'rtasida mustahkam bog'liqlik mavjud. Swiss Re Institute (2024) hisobotining tahliliga ko'ra, chakana sug'urta bozorining eng yuqori o'sish sur'atlari texnologiyalarni faol integratsiya qilgan va moliyaviy inklyuziyani kengaytirishga qaratilgan davlat siyosatini yuritayotgan mamlakatlarda kuzatilmoqda. Masalan, Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarida (Indoneziya, Vyetnam, Filippin) "digital-first insurance" modeli amalda bo'lib, so'nggi besh yil ichida chakana sug'urta xizmatlari qamrovi 1,5-2 barobarga oshgan.

Muhim tendensiyalardan biri — bu integratsiyalashgan sug'urta (embedded insurance) rivojidir. Bunday sug'urta mahsulotlari bank ilovalari, mobil hamyonlar, onlayn savdo maydonchalari (marketpleyslar) kabi kundalik xizmatlarga integratsiyalashgan bo'ladi. Bu model Hindiston va Keniyada o'zini isbotlagan bo'lib, u yerda raqamli kanallar orqali mijozlarni qamrab olish darajasi umumiyligi sug'urta oluvchilarining 40–50 foizigacha yetgan. Shu bilan birga, McKinsey (2023) xatti-harakatlarga asoslangan shaxsiylashtirish (behavioral personalization) va moslashuvchan tarif modellarining dolzarbligini ta'kidlaydi, ayniqsa aholining sug'urta mahsulotlari narxlariga nisbatan sezuvchanligi yuqori bo'lgan sharoitlarda.

O'zbekistonda esa, so'nggi yillardagi faol islohotlarga qaramay, chakana sug'urta moliyaviy xizmatlar tizimida hanuzgacha cheklangan ulushni egallab turibdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Istiqbolli loyihibalar milliy agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda sug'urta xizmatlarining YaIMga nisbatan qamrov darajasi atigi 0,5% ni tashkil etgan bo'lib, bu Markaziy Osiyo davlatlarining o'rtacha ko'rsatkichidan (1,2–1,5%) ancha pastdir. Mavjud asosiy to'siqlar quyidagilardan iborat:

- ✓ Aholining sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonchi pastligi;
- ✓ Mijozlar uchun mo'ljallangan raqamli xizmatlarning cheklanganligi;
- ✓ To'g'ridan-to'g'ri sotuv kanallarining zaifligi (ayniqsa hududiy darajada);
- ✓ Aholining keng qatlamlarida moliyaviy savodxonlikning yetarli emasligi.

Shunga qaramay, 2022–2024 yillar oraliq'ida ijobjiy siljishlar ham kuzatildi: elektron sug'urta polislarini (e-policy) joriy etish, insurtech kompaniyalar faoliyatini rag'batlantiruvchi

qonunchilikdagi o'zgarishlar, hayot va sog'liqni sug'urtalash sohalarida davlat-xususiy sherikliklarning rivojlanishi bunga misoldir.

Solishtirma tahlil natijalari O'zbekistonda chakana sug'urtaning barqaror rivojlanishi uchun quyidagi xalqaro yondashuvlarning mosligini ko'rsatadi:

1. Raqamlashtirish va mobil distributsiya — Keniya va Hindiston tajribasi asosida;
2. Inklyuziv sug'urta modellariga davlat tomonidan ko'maklashish — Marokash va Vyetnam misolida;
3. Sug'urtani raqamli xizmatlar ekotizimiga integratsiya qilish — Janubiy Koreya va Xitoy tajribasi asosida;
4. Qishloq aholisi va ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlar uchun mikrosug'urtani rivojlantirish. O'tkazilgan tahlil xalqaro yondashuvlarning O'zbekiston sharoitiga yuqori darajada mos kelishini ko'rsatadi. Biroq bu muvaffaqiyatli bo'lishi uchun tajribaning milliy kontekstga moslashtirilishi va davlat, sug'urta kompaniyalari hamda texnologik platformalar o'rtaсидаги muvofiqlashtirilgan hamkorlik zarur.

O'tkazilgan tahlil asosida O'zbekiston Respublikasi va raqamli hamda inklyuziv sug'urta modellarini muvaffaqiyatli joriy qilgan uchta davlat — Hindiston, Keniya va Qozog'iston o'rtaсида chakana sug'urtani rivojlantirishga oid asosiy ko'rsatkichlarning solishtirma tahlili tuzildi. Ushbu taqqoslash institusional va texnologik tafovutlarni ochib berish bilan birga, O'zbekiston sharoitiga mos kelishi mumkin bo'lgan ilg'or amaliyotlarni aniqlash imkonini beradi.

1-jadval

Chakana sug'urtani rivojlantirish ko'rsatkichlari taqqosiy tahibili (2023-yil holatiga ko'ra)

Ko'rsatkich	O'zbekiston	Hindiston	Keniya	Qozog'iston
Sug'urta qamrovi (YaIMga nisbatan, %)	0,5%	4,2%	2,9%	1,5%
Chakana savdolarda raqamli kanallar ulushi	~15%	>60%	~50%	~40%
Embedded sug'urtaning rivojlanishi	Past	Yuqori	O'rtacha	O'rtacha
Mikrosug'urta mavjudligi	Cheklangan	Bor	Bor	Qisman
Mobil platformalar orqali sug'urta	Dastlabki bosqich	Rivojlangan	Rivojlangan	Rivojlanmoqda
Insurtech ko'magini qo'llab-quvvatlash	Zaif	Kuchli	O'rtacha	O'rtacha
Aholining moliyaviy savodxonligi	Past	O'rtacha	O'rtacha	O'rtacha

Manba: Swiss Re (2024), McKinsey (2023), World Bank (2022), milliy regulyatorlar Jadvaldan ko'rinish turibdiki, O'zbekiston chakana sug'urtani rivojlantirish bo'yicha muhim ko'rsatkichlarda, xususan raqamlashtirish, embedded sug'urta mahsulotlarini joriy etish va aholining umumiy qamrovi nuqtai nazaridan sezilarli darajada orqada qolmoqda. Hindiston va Keniya esa, ayniqsa chekka hududlarda aholining sug'urta xizmatlariga kirishini kengaytirish maqsadida mobil texnologiyalar va mikrosug'urtani faol qo'llamoqda.

Alovida e'tiborga molik jihatlardan biri Hindistonda sug'urta mahsulotlarini mobil va onlayn kanallar orqali sotish darajasining 60 foizdan oshganidir. Bu yutuq sug'urta kompaniyalari, fintex sektori va davlat tomonidan olib borilayotgan raqamlashtirish siyosatining uzviy hamkorligi natijasida amalga oshgan. Keniya misolida esa M-Pesa kabi ommaviy to'lov platformalari orqali sog'liqni saqlash va hayotni sug'urtalash dasturlarining integratsiyasi muvaffaqiyatli yo'lga qo'yilgan.

Qozog'iston esa sekinroq, biroq izchil o'sishni namoyon etmoqda — xususan, elektron polislari joriy etilishi va insurtech sohasining rivojlanishi hisobiga. O'zbekistonda bu jarayonlar hali shakllanish bosqichida, biroq mavjud qonunchilik islohotlari va texnologik infratuzilma potensiali kelgusi bosqichlarda bu yo'nalishlarning faol rivojlanishiga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, o'rganilgan natijalar O'zbekistonda raqamli va inklyuziv sug'urta mexanizmlarini faol joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa xalqaro tajribalarni mahalliy kontekstga moslashtirgan holda, davlat idoralari, sug'urta kompaniyalari va texnologik platformalar o'rtafiga muvofiqlashtirilgan hamkorlikni talab qiladi..

Xulosa va takliflar.

O'tkazilgan tadqiqot chakana sug'urtaning moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlash, uy xo'jaliklarining barqarorligini oshirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi muhim rolini tasdiqladi. Xalqaro manbalar, jumladan Swiss Re Institute (2024) hisobotining tahliliga asoslanib, quyidagi global barqaror tendensiylar aniqlangani ta'kidlanadi: raqamlashtirish, integratsiyalashgan sug'urta (embedded insurance) hajmining ortib borishi, mikrosug'urtaning rivojlanishi va insurtech platformalarning kuchayib borayotgan o'rni.

Solishtirma tahlil Hindiston, Keniya va Qozog'iston kabi mamlakatlarda chakana sug'urtaning muvaffaqiyatli rivojlanishi raqamli texnologiyalarni joriy etish, qulay me'yoriy-huquqiy muhit yaratish va inklyuziv modellarning ilgari surilishida davlatning faol ishtiroki orqali erishilganini ko'rsatdi. Ushbu davlatlarda chakana sug'urta nafaqat tijorat mahsuloti sifatida, balki ijtimoiy siyosat vositasi sifatida ham qaralmoqda.

Sug'urta sektorini faol transformatsiya qilish bosqichida bo'lgan O'zbekiston uchun xalqaro tajribalarni amaliyatga tatbiq etish bo'yicha sezilarli salohiyat mavjud. Garchi ayrim muammolar – sug'urta qamrovi pastligi, raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi, aholining moliyaviy savodxonligining pastligi saqlanib qolayotgan bo'lsa-da, hozirgi islohotlar va tashabbuslar ushbu sohaning sifatlari rivoji uchun mustahkam asos yaratmoqda.

O'zbekistonda chakana sug'urtani rivojlantirish bo'yicha takliflar:

1. Raqamli kanallarni rivojlantirish: sug'urta mahsulotlarini sotish uchun onlayn platformalar va mobil ilovalarni joriy etishni rag'batlantirish; elektron sug'urta polislari va elektron verifikatsiya tizimlarini qo'llab-quvvatlash.

2. Embedded sug'urta modellarini integratsiya qilish: sug'urta xizmatlarini fintex servislar, elektron savdo maydonchalari, bank ilovalari va e-commerce platformalarga kiritish; sug'urta kompaniyalari bilan texnologik ekotizimlar o'rtafiga hamkorlikni rivojlantirish.

3. Mikrosug'urta va inklyuziv modellarni joriy etish: kam ta'minlangan va qishloq joylardagi aholi uchun arzon to'lovli sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish; Keniya va Hindiston tajribasi asosida mobil va SMS orqali amalga oshiriladigan sug'urta amaliyotlarini tatbiq etish.

4. Insurtech ekotizimini qo'llab-quvvatlash: innovatsion sug'urta yechimlarini sinovdan o'tkazish uchun "regulyator qum maydonchalari" (regulatory sandboxes) yaratish; chakana sug'urta sohasiga texnologik yechimlar olib kiruvchi startaplar uchun bozorga kirishni soddalashtirish.

5. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish: sug'urta mexanizmlarini tushuntirishga qaratilgan ma'rifiy kampaniyalarni hududlarda o'tkazish; ta'lim va ommaviy axborot platformalarida sug'urta bo'yicha modullarni joriy etish.

6. Sektoring institutsional va normativ mustahkamlanishi: sug'urta kompaniyalarining oshkoraliqi va javobgarligini kuchaytirish; IAIS (Xalqaro sug'urta nazoratchilari assotsiatsiyasi) amaliyotlariga mos tarzda tartibga solish standartlarini yangilash.

Xalqaro yondashuvlarning milliy o'ziga xosliklar bilan uyg'unlashtirilgan holda joriy etilishi O'zbekistonda zamонави, aholiga qulay va iqtisodiy hamda ijtimoiy chaqiriqlarga javob bera oladigan barqaror chakana sug'urta tizimini shakllantirish imkonini beradi .

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

- Accenture. (2023). *The Future of Insurance*.
EY. (2023). *NextWave Insurance – Retail*.
McKinsey & Company. (2023). *Retail Insurance: Trends and Future*.
OECD. (2023). *Enhancing Retail Insurance in Emerging Markets*.
PwC. (2024). *Insurance 2030*.
Swiss Re Institute. (2024). *Global Insurance Outlook 2024*.
World Bank. (2022). *Insurance for Development*.